



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukxonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

“Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....	20
Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov	
Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....	26
Musayeva Shoirazimovna	
Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....	30
Ж.Я.Нуриллаев	
Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta’siri tahlili.....	37
Xolmamatov Farhodjon Kubaevich	
O‘zbekiston respublikasida aholi bandligini ta’minlashdagi dolzarb masalalar	44
Ibragimov Elmurod Gulboynor o‘g‘li	
O‘zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta’minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta’sirini ekonometrik tahlil qilish.....	48
Fayziyev Rabim Alikulovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti	60
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qishloq xo‘jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari	67
Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich	
O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik)	72
Qodirov Farxod Amirovich, Bo‘ribaeva Qundiz Muratbaevna	
Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	77
Mahamatova Maftuna	
Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o‘zbekiston miqyosida.....	83
Koshanov Abdimurat Azat uli	
Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....	87
Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....	92
Soatova Nodira Boboxanovna	
Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....	97
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li	
Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....	102
Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o‘g‘li	
Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘llari.....	110
Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna	
Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida	117
Nodir Xidirov G‘iyosaliyevich	
Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidiligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati	122
Bauyetdinov M.J.	
Теоретические подходы к определениям агрессий социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей	128
Алимова Райхона Баходировна	
Innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....	139
Komilov Umidjon Normurod o‘g‘li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	



Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari	143
Nematulloev Suxrob Sobirovich	
Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi	148
Kamola Xaydarova	
“Sibir daryolarining burilishi” loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili	153
Mahmudov Nosir Mahmudovich	
Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli	159
Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li	
Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises	165
Khalilov Bekzod Akhmatovich	
Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....	171
Mirtursunova Dinara Anvarovna	
O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari.....	175
Tangriyev Izzat Raxmatullayevich	
Qashqadaryo viloyatida eko va etno turizmni rivojlantirishning istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi.....	181
Erkayeva Barno, Xushvaqtoev Ramziddin	
O'zbekiston bank tizimida raqamli valyutalar va yashil investitsiyalar integratsiyasini takomillashtirish	186
Nodirov Azizxon Asrorovich	
Global energiya noaniqligining o'zgaruvchanligi ekonomertik modellari	192
Bexzod Qo'ziboev	
Экоцифра: цифровизация МСП для зеленого устойчивого роста	197
С.С. Убаева	
Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va ekologik toza hududni yo'lga qo'yishning ahamiyati	201
Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich	
Statistika fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari.....	206
Nabixodjaev Abbas Abdupattahovich, Umarova Mukaddas Abbasovna	
Hududlarning atmosferaga chiqaradigan zararli chiqindilar miqdorini sanoat mahsulotiga nisbati bo'yicha tahlili	210
Baqoyev Husan Nuriddinovich	
Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish	216
Nuraliyeva Komila Sanakulovna	
Qishloq xo'jaligini «yashil» iqtisodiyot asosida rivojlantirishga o'tishning zarurligi va mohiyati.....	221
Yoldoshev Mutalib Ibrohimovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda “yashil investitsiyalar” dan foydalanishning xorij tajribalari	225
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna, Rustamova Nasiba Arslanovna	
Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni.....	230
Raxmonova Feruza Musaqlovna	
Oliy ta'lim xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni.....	234
Mirzaxajeva Shaxzoda Shuxratovna	
Tijorat banklari muammoli kreditlarining likvidlilikka ta'siri.....	240
Karshiyev Adham Anvarovich	
Kichik firmalarning raqobatbardoshligini oshirishning nazariy metodologik jihatlari.....	245
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Aliyev Maqsudbek Erkinovich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari.....	251
Talapova Nargiza Baxriddinova	



“Deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlari”	255
Saidbekova Feruza Anvarbek qizi	
Aholi daromadlarini diversifikatsiya qilishda davlat siyosatining roli va imkoniyatlari	258
Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li, Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich	
Анализ показателей развития зелёной химии по всему миру и в узбекистане за последние десять лет	262
Фозилова Фирангиза Комиловна	
Tijorat banklarining o‘zbekiston respublikasi iqtisodiyotiga ta’siri	270
Masharipov Rasulbek Jo‘rabekovich	
Biznes birlashuvda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish yo‘nalishlari	273
Hamroyeva Zuhra Amiral qizi, Xayitboyeva Laylo Oybekovna, Mirzarayimov Sardorbek Ravshanovich	
O‘zbekiston respublikasida pul-kredit siyosatining maqsadi	277
Adilov Zuxriddin Marip o‘g‘li	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish va bozorlararo aloqalarining statistik o‘zgarish tendensiyalari	281
Zakirova Umida Maxamadaminovna	
Iqtisodiy bilimlarni shakllanishi va rivojlanishi	286
Po‘latov Abdulloh Xolxo‘jayevich	
Теоретические основы эффективного управления финансовыми ресурсами предприятий с государственной долей (на примере узбекистана)	291
Ахмедов Дилшод Турсункулович	
Robototexnika asoslari va maktab ta‘limida qo‘llanilishi	298
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o‘g‘li	
Sun‘iy intellektlar yordamida o‘quvchilarni hayotiy faoliyat ko‘nikmasini shakllantirishi	303
Mirxasilova Zulfiya Kochkarovna, Abdurahmanova Ozoda Djo‘rayevna, Kurbanov Azimjon Jo‘raboy o‘g‘li	
Levi tengsizligi uchun A.N. Kolmogorov teoremlari	316
Saypiddinov Shukurullo Sadrdinovich, Baxramov Rustamjon Qambarali o‘g‘li	
Rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimida raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish afzalliklari	320
Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich	
O‘zbekiston respublikasining mdh mamlakatlari bilan tashqi savdo faoliyati tahlili: o‘zgarish tendensiyalari va istiqbollari	326
Ilyosov Asrorjon Axrorjon o‘g‘li, Abdullaev Alisher Maxmudovich, Tuxtasinova Muxayyo Mirzasultonovna	
Elektron tijoratni rivojlantirishning xorij tajribasi	330
Madieva Zuxra Iskandarbekovna	
Inson resurslarini o‘rganishning asosiy yondashuvlari: mohiyat-ta’rif tahlil	336
Bakirov Qobiljon Mamatyusupovich	
Bandlikni ta’minlashda davlat tomonidan institutsional muhit yaratishning roli	340
Dilorom Tojiboyeva, Umida Ravshanovna Anvarova	
Mamlakatimizda islom moliyasini rivojlantirish maqsad va choralari	346
Xoliyorov Xomid Boynazarovich	
Разработка экспертной системы для оценки финансового состояния предприятия	352
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Farg‘ona vodiysi viloyatlarida kichik biznes ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi: panel regressiya tahlili	362
Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi	
O‘zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblashdagi asosiy muammolar va ularning yechimlari	368
Farmonov Ilhomjon Iqboljon o‘g‘li	
Xorijiy tajriba asosida korxonalar innovatsion faolligini boshqarishni takomillashtirish	374
Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
Mahalliy davlat hokimiyati organlarida milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish	380
G‘aniev Elyor Sobirjonovich	
O‘zbekistonda sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishning ahamiyati	386
Mirzayev Muzaffar Maxmudovich	



The role of international investments in greening and ecological rehabilitation of the aral sea region	392
Ospanova Feruza Bazarbaevna	
“Зеленое направление” совершенствования бухгалтерского учета	397
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
Xarajatlarni kelib chiqish joylari va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olishni takomillashtirish	403
Xamidova S.Ya.	
Mintaqalarni iqtisodiy rivojlantirishning metodologik asoslari va ularni takomillashtirish.....	409
Toshaliyeva Saodat Toxirovna	
O'zbekistonda kichik turar joy biznesini rivojlantirishda xorijiy tajribalar	414
Yo'ldashev Bekzodjon Sherzodjon o'g'li	
Tijorat banklarida davlat maqsadli dasturlarini moliyalashtirish yuzasidan ilmiy-nazariy qarashlar.....	419
Shodiyev Shuhrat Sunnat o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA DAVLAT MAQSADLI DASTURLARINI MOLIYALASHTIRISH YUZASIDAN ILMIY-NAZARIY QARASHLAR



Shodiyev Shuhrat Sunnat o'g'li

TDIU "Bank ishi" kafedrası mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining davlat maqsadli dasturlarini moliyalashtirishdagi roli, bu jarayonning iqtisodiy samaradorligi hamda amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Maqsadli dasturlar orqali iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlariga yo'naltirilgan resurslar oqimi, banklar orqali real sektorga yetkazilish tizimi va bu jarayonni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslar ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, moliyalashtirishning risklari, monitoring mexanizmlari hamda kreditlash hajmi va shartlari tahlili asosida davlat-bank hamkorligining samaradorligi baholanadi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, davlat dasturi, moliyalashtirish, kreditlash, iqtisodiy samaradorlik, bank tizimi.

Abstract: This article explores the theoretical perspectives on the role of commercial banks in financing government-targeted programs. It analyzes the economic efficiency of these initiatives, mechanisms for their implementation through the banking system, and the regulatory framework that governs them. Particular attention is given to evaluating credit volumes, risk factors, and lending conditions, as well as assessing the effectiveness of public-bank partnerships in achieving targeted development goals.

Key words: commercial banks, government programs, financing, lending, economic efficiency, banking system.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретико-научные подходы к роли коммерческих банков в финансировании государственных целевых программ. Проанализированы экономическая эффективность таких программ, механизмы их реализации через банковскую систему, а также нормативно-правовая база, регулирующая данный процесс. Особое внимание уделено анализу рисков, объемов и условий кредитования, а также эффективности сотрудничества государства и банков в рамках целевого финансирования.

Ключевые слова: коммерческие банки, государственные программы, финансирование, кредитование, экономическая эффективность, банковская система.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti holatiga baho berishda bir qator ko'rsatkichlardan foydalanilmoqda. Bu ko'rsatkichlarning har biri davlat iqtisodiyotining alohida jihatlari yoritish orqali aniq xulosalar chiqarish imkonini beradi. Jumladan, iqtisodiyotda real sektor subyektlari soni, yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida yirik, o'rta va kichik tadbirkorlikning ulushi kabi mezonlar asosida tahlil olib boriladi. Ayniqsa, mamlakat yalpi mahsulotida kichik biznes subyektlarining yuqori ulushga egaligi, ushbu hududda biznes muhiti shaffofligini anglatadi.

Bu jarayonda tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlari, xususan, ushbu yo'nalishdagi dasturlarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.



O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda kichik biznesni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, bu sohaning rivojiga to'sqinlik qilayotgan omillarni bartaraf etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – bizning strategik yo'limiz" degan fikrlari mamlakatimizda ushbu soha rivojiga qaratilayotgan e'tibor darajasini yaqqol ko'rsatadi¹.

So'nggi besh yil ichida mamlakatimizda kichik tadbirkorlar soni ikki barobarga oshdi. Hozirda ushbu subyektlarda 10 million 500 ming nafar fuqaro band bo'lib, bu jami band aholining 74 foizini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotining 50 foizdan ortig'i, sanoat va eksportning esa 34 foizi aynan kichik biznes hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator yo'nalishlarda manzilli va loyihaviy asosda ishlar olib borilmoqda. Jumladan, ushbu sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari doirasida moliyaviy vositalarning yo'naltirilishi yuqoridagi natijalarga erishishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Kichik biznes subyektlarini davlat dasturlari doirasida imtiyozli qo'llab-quvvatlash, tijorat banklari tomonidan past foizli kreditlar va subsidiyalar ajratilishi sohaning so'nggi yillarda jadal rivojlanishi uchun zarur zamin yaratmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat maqsadli dasturlarining mohiyati, asosiy turlari va vazifalarini aniqlash, shuningdek ularni moliyalashtirishga doir masalalar xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Jumladan, amerikalik iqtisodchi, davlat moliyasi bo'yicha yetakchi mutaxassis Richard Musgrave, shuningdek Nobel mukofoti sohiblari – Jan Tinbergen va Paul Samuelson davlat moliyasi, "jamoat tanlovi" nazariyasi hamda davlat xarajatlari sohasida muhim ilmiy tadqiqotlar olib borgan. AQSHlik iqtisodchi James Buchanan ham davlat maqsadli dasturlarining jamiyat hayotidagi o'rni va iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyati borasida o'z nuqtayi nazarlarini ilgari surgan.

Mahalliy olimlardan Sh. Shodmonov, U. V. G'afurov, M. Sh. Xalilov, Sh. Baymuradov, N. G. Mo'minov va A. A. Yadgarovlarning izlanishlarida davlat maqsadli dasturlarining iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari chuqur tahlil etilgan. Masalan, iqtisodchi olim Sh. Shodmonov o'z ilmiy ishlarida davlat maqsadli dasturlariga quyidagicha ta'rif beradi: "Davlat maqsadli dasturlari – bu iqtisodiy resurslarni muayyan maqsadlarga yo'naltirish orqali muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimidir". Jan Tinbergen esa davlat dasturlarini quyidagicha tavsiflaydi: "Davlat dasturlari – iqtisodiy o'sishga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan chora-tadbirlar majmuasidir".

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada davlat maqsadli dasturlarining tijorat banklari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi turli iqtisodiy yondashuvlar, nazariy qarashlar va ularning tahliliy xulosalari asosida solishtirma tahlil qilinadi. Bundan tashqari, maqsadli dasturlarni banklar orqali moliyalashtirish natijasida jahon miqyosida yuzaga kelgan ijobiy va salbiy holatlar statistik ma'lumotlar asosida ilmiy abstraksiya metodlari orqali ko'rib chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari tomonidan davlat dasturlarini moliyalashtirish jahon tajribasida uzoq yillardan buyon qo'llanilayotgan iqtisodiy mexanizm bo'lib, ushbu amaliyot turli iqtisodiy yondashuvlar doirasida ilmiy tahlil etilgan.

Sir emas, aynan tijorat banklari iqtisodiy o'sish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda jamiyatning muhim moliyaviy institutlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda banklarning turli shakllari mavjud bo'lib, ayrim mamlakatlarda hukumat tomonidan maxsus vazifalarni bajarish uchun ixtisoslashgan tijorat banklari tashkil etilgan. Bu esa xalqaro tajribada o'zining ijobiy samaralarini bergan va hozirda ham samarali ishlayotgan mexanizmlardan biri sifatida qaralmoqda.

Davlat maqsadli dasturlarini tijorat banklari orqali moliyalashtirish masalasida iqtisodchilar turli yondashuvlarga ega. Ba'zi iqtisodiy nazariyalar bunday tizimni davlat resurslarini bozorga samarali yo'naltirish vositasi sifatida ko'rsatsa, boshqalar ushbu tizimda davlat va xususiy sektor o'rtasida funksional ziddiyatlar yuzaga kelishini ta'kidlaydi. Xususan, monetaristlar va keynsiyanchilar ushbu masalada turli nuqtayi nazarga ega bo'lib, ularning bahsli jihatlari maqolada statistik dalillar orqali ilmiy asosda ochib beriladi (1-jadval).

1 O'zbekiston respublikasi Prezidentining kichik va o'rta biznes vakillari bilan uchrashuvi nutqidani. <https://president.uz/uz/lists/view/7955>. 19.03.2025

1-jadval. Davlat maqsadli dasturlarini moliyalashtirishga yondashuvlar²

Yondashuvlar	Asosiy Tamoyillari	Yondashuvda tijorat banklarining roli	Yondashuvning kamchiliklari
Neoklassik yondashuv	Bozor tamoyillari. Sog'lom raqobat.	Bozor tamoyillariga asoslangan kredit siyosati. Moliyalashtirishga xususiy sektorning ham jalb qilinishi.	Rivojlanayotgan mamalatlarda davlat aralashuvining shartligi. Davlatning xususiy sektorning moliyaviy qo'llab-quvvatlashining muhimligi.
Keynscha yondashuv	Davlatning iqtisodiyotdagi faol ishtiroki.	Tijorat banklarining faol ishtiroki. (infratuzilma loyihalarining moliyalashtirilishi) Davlat tomonidan tijorat banklarining moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi.	Banklarning davlatga qaramligining ortishi. Xususiy sektorning boqimandalik kayfiyati va raqobatga nisbatan zaiflashishi.
Monetar nazariya yondashuvi	Iqtisodiyotdagi pul massasining qat'iy nazorati	Pul massasini nazorat qilish. Pul taklifini tartibga solish. Inflyatsiyaning doimiy nazorat qilish imkoniyati.	Pul-kredit siyosati samarasining sekin sezilishi. Kredit bozorida taqchillik.
Moliyaviy intermediatsiya nazariyasi yondashuvi	Iqtisodiyotda moliyaviy institutlarning rolini kengaytirish.	Kapital oqimlarining samarali taqsimoti. Kredit risklarining samarali boshqaruvi	Davlatdan manba olgan banklarning harakatining sustligi. Kuchsiz davlat nazorati holatida resurslarning noto'g'ri taqsimlanishi.

1. Neoklassik yondashuvlar. Ushbu nazariyaga ko'ra, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi minimal bo'lishi kerak. Bozor o'zini-o'zi tartibga solish funksiyasidan foydalangan holda, quyidagi bir qancha qarashlar ilgari suriladi:

- Erkin bozor muhitida talab va taklifning muvozanati avtomatik ravishda yuzaga keladi;
- Erkin raqobat iqtisodiy samaradorlikning oshishini ta'minlaydigan asosiy shartlardan biri;
- Xususiy sektor va bank tizimi o'rtasida tabiiy bozor qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda optimal munosabat bo'lishi kerak;³

Neoklassik yondashuvga ko'ra, davlat maqsadli dasturlarini tijorat banklari orqali moliyalashtirish jarayonida kreditlash mexanizmlarini bozor tamoyillariga asoslangan holda tashkil etish zarur deb hisoblanadi. Ushbu yondashuvda kredit siyosatini ishlab chiqishda bozordagi real stavkalar, kapitalning erkin harakati va talab-taklif muvozanatiga asoslangan yondashuv ustuvor sanaladi.

Shuningdek, neoklassik iqtisodiy maktab vakillari bank tizimiga davlatning haddan tashqari aralashuvi kamaytirilsa, tijorat banklari tomonidan ushbu yo'nalishga xususiy investitsiyalarni jalb qilish salmog'i ortishini va natijada tadbirkorlik loyihalarining moliyalashtirish darajasi oshishini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, bu holat moliya bozorlarida sog'lom raqobat muhitini shakllantirib, resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Neoklassik nuqtayi nazarga ko'ra, davlat maqsadli dasturlarini haddan tashqari darajada byudjet mablag'lari orqali, xususan, bozor stavkalaridan past foizli kreditlar va subsidiyalar shaklida moliyalashtirish – sof raqobat muhitini buzishi va bozor qonuniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ular bu holatni iqtisodiy buzilishning asosiy sababi sifatida ko'rsatadilar⁴.

Uzoq muddat davomida davlat tomonidan moliyalashtirilgan maqsadli dasturlar natijasida iqtisodiyotda "qaramlik sindromi" shakllanishi ehtimoli yuqori ekanligi ham neoklassiklar tomonidan alohida qayd etiladi. Ushbu qarashga ko'ra, doimiy subsidiya va yengilliklar orqali bozor subyektlarining mustaqil iqtisodiy qaror qabul qilish salohiyati pasayadi va bu esa, butun iqtisodiyotda davlatga nisbatan qaramlik kayfiyatining kuchayishiga olib keladi.⁵

2. Keynscha yondashuv. Davlat maqsadli dasturlarining moliyalashtirilish mexanizmlari yuzasidan Keynscha yondashuv Anglyalik iqtisodchi olim Jon Meynard Keyns tomonidan ilgari surilgan nazariyalarga asoslanib, davlat maqsadli dasturlarining tijorat banklari tomonidan moliyalashtirilishi bo'yicha quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

2 Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

3 [https://en.wikipedia.org/wiki/Economics_\(textbook\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Economics_(textbook))

4 Marshall's "Industry and Trade" A. C. Pigou. The Economic Journal. Vol. 29, No. 116 (Dec., 1919), pp. 443-450 (8 pages) Published By: Oxford University Press

5 Léon Walras, Elements of heoretical Economics or he theory of Social Wealth Translated and edited by Donald A. Walker Indiana University of Pennsylvania JAN VAN DAAL Triangle, University of Lyons-2. PART IV THEORY OF CAPITAL FORMATION AND CREDIT, Lesson 25 Solution of the equations of capital formation and credit. Law of the determination of the rate of net income



Xususan J.M.Keyns o'zining "Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" asarida shunday fikrlarni keltiradi, Davlat iqtisodiyotni barqarorlashtirish va to'la bandlik holatiga erishish uchun faol fiskal va monetar siyosat yuritishi lozim⁶. Bu yondashuvga ko'ra, davlatning xarajatlarni oshirib, umumiy soliqlar hajmini kamaytirishi orqali yalpi talabni rag'batlantiradi. Ushbu yondashuvdan kelib chiqilgan holda davlat maqsadli dasturlarining tijorat basnklari orqali moliyalashtirilishi to'g'risida quyidagi farazlarni keltirib o'tish mumkin.

- Davlat xarajatlarini oshirish. Maqsadli dasturlarni amalga oshirishda tijorat banklari orqali kreditlar ajratish, infratuzilma loyihalarni qo'llab-quvvatlash va boshqa investitsion loyihalarni amalga oshirish orqali iqtisodiyotda yalpi talab miqdorining oshishiga erishiladi.

- Imtiyozli kreditlash. Davlat tijorat banklari orqali imtiyozli kreditlar ajratish bilan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlaydi, bu esa o'z navbatida tadbirkorlik uchun davlat miqyosida berilayotgan e'tibor hisoblanib, xususiy sektor uchun motivatsiya vazifasini bajaradi.

- Moliyaviy vositachilikni kuchaytirish. Tijorat banklari dasturlar doirasida ajratilgan mablag'larni samarali taqsimlash orqali, o'zining moliyaviy vositachilik funksiyasini bajaradi. Bu esa investitsion samaradorlikni oshirishi mumkin⁷.

- Bozor yetishmovchiliklarini bartaraf etish. Rivojlanayotgan mamlakatlarda real sektor kapital taqchilligi natijasida yetarlicha rivojlana olmaydi. Davlat tomonidan ushbu vaziyatda xususiy sektorning qo'llab-quvvatlanishi mamlakatda tadbirkorlik atmosferasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi⁸.

- Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi. Ijtimoiy sohalarini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlarning amalga oshirilishi, barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri bo'lishi mumkin.

3. Monetar nazariya. Ushbu nazariya mamlakatdagi pul massasiga e'tiborning muhimligini ta'kidlaydigan nazariya hisoblanib, ushbu yo'nalishga Milton Fridman tomonidan asos solingan. Bu yo'nalishga ko'ra maqsadli dasturlarning tijorat banklari tomonidan moliyalashtirilishi bo'yicha quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Pul massasining nazorati. Dasturlarning aynan banklar orqali moliyalashtirilishi iqtisodiyotdagi pul massasining haqiqiy hisobini yuritishga xizmat qiladi⁹.

- Foiz stavkalari vositasida rag'batlantirish. Monetar siyosatning muhim elementi bo'lgan foiz stavkalari davlat maqsadli dasturlarining samaradorligini belgilaydi. Past foiz stavkalarida ajratilgan imtiyozli kreditlar xususiy sektorning kredit faolligini oshiradi, yuqori foizli kreditlash esa, o'z navbatida, inflyatsiyaga qarshi amaliyot hisoblanadi.¹⁰

- Pul taklifining tartibga solinishi. Hukumatdan Markaziy bank orqali tijorat banklariga dasturlarni moliyalashtirish maqsadida resurslarni berishi natijasida likvidlik mablag'larning va bu orqali likvidlik mablag'lar ustidan nazoratni mustahkamlash orqali iqtisodiy o'sish va inflyatsiyani tartibga solish imkoniyati¹¹.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, monetar nazariy yondashuvga ko'ra, davlat maqsadli dasturlarini tijorat banklari orqali moliyalashtirish pul massasining tartibga solinishi va iqtisodiy o'sishning barqarorlashishida muhim rol o'ynaydi. Monetar vositalar orqali moliyaviy resurslarning bunday shaklda taqsimlanishi iqtisodiyotga davlatning boshqa tomondan aralashuvlarini kamaytirib, bozordagi muvozanatni saqlashga yordam berishi mumkin.

Moliyaviy intermediatsiya nazariyasi. Moliyaviy intermediatsiya(vositachilik) nazariyasi iqtisodiyotda moliyaviy institutlarning jamg'armalar investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikka asoslangan nazariya bo'lib, ushbu nazariyaga ko'ra, tijorat banklari omonatchilardan jalb qilib, ularni investitsiya yoki kreditlar shaklida iqtisodiy sub'ektlar tomon harakatlantiradi¹². Davlat maqsadli dasturlarini tijorat banklari orqali moliyalashtirishda tijorat banklarining aynan vositachilik funksiyasining namoyon bo'lishi ushbu nazariya elementlaridan doimiy tarzda foydalanishning samarali ekanligini ko'rsatadi. Chunki, aynan, tijorat banklarida resurslarni oqilona taqsimlash va maqsadli yo'naltirish imkoniyatlari samarali shakllangan. Nazariyaga ko'ra maqsadli dasturlarni banklar orqali moliyalashda quyidagi tamoyillarni ajratib ko'rsatadi¹³:

Resurslarni samarali taqsimlash. Tijorat banklari davlat tomonidan ajratilgan resurslarni bozor sharoitlariga mos holda taqsimlaydi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Risklarni boshqarish. Tijorat banklari davlat dasturlari doirasida ajratilayotgan kreditlarning xavf darajasini baholaydi va uni minimallashtirish choralarini ko'radi. Bu orqali yo'naltirilgan mablag'larning samaradorligini oshirishga bevosita xizmat qiladi.

6 "The General Theory of Employment, Interest, and Money" By John Maynard Keynes. February 1936. chapter 8, the propensity to consume: in. the objective factors page 53.

7 Mankiw, N. G. (2020). Macroeconomics. 10th Edition, Worth Publishers.

8 Mishkin, F. S. (2019). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. 13th Edition, Pearson.

9 Friedman, M. (1968). The Role of Monetary Policy. American Economic Review, 58(1), 1-17

10 Bernanke, B. S., & Blinder, A. S. (1988). Credit, Money, and Aggregate Demand. American Economic Review, 78(2), 435-439.

11 Bernanke, B. S., & Blinder, A. S. (1988). Credit, Money, and Aggregate Demand. American Economic Review, 78(2), 231-239.

12 Gurley, J. G., & Shaw, E. S. (1960). Money in a Theory of Finance. Washington, D.C.: Brookings Institution.

13 Levine, R. (1997). Financial Development and Economic Growth: Views and Agenda. Journal of Economic Literature, 35(2), 688-726



Moliyaviy vositachilik va riskni bo'lishish. Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kredit mablag'larining qaytarilishi bo'yicha banklar ma'lum darajada javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Bunda kreditlarning qaytishini ta'minlash maqsadida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va monitoring mexanizmlari qo'llaniladi.

Moliyaviy intermediatsiyaning kuchayishi. Tijorat banklari davlat dasturlari doirasida resurslarni taqsimlashda faol ishtirok etish orqali bozor mexanizmlarining rivojlanishiga hissa qo'shadi, bu esa moliyaviy tizimning ichki barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy intermediatsiya nazariyasiga ko'ra, tijorat banklarining davlat maqsadli dasturlarini moliyalashtirishdagi faol vositachilik funksiyasi kredit resurslarining samarali taqsimoti, risklarni boshqarish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirish orqali iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida davlat maqsadli dasturlarining tijorat banklari orqali moliyalashtirilishida oxirgi yillarda quyidagi tendensiyalar kuzatilmoqda:

Birgina "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish" davlat dasturlarini moliyalashtirish doirasida O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklari tomonidan quyidagi miqdorlarda mablag'lar ajratilgan (2-jadval):

2-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2021-2024-yillarda Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari bo'yicha ajratilgan kreditlar¹⁴

Davr	Jami ajratilgan kreditlar		shu jumladan							
			"Har bir oila – tadbirkor" dasturi asosida		Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qo'llab-quvvatlash jang'armasi hisobidan		Hunarmandchilikni rivojlantirishga		Mahalliy hokimliklar huzuridagi jang'armalar va Bandlikka ko'maklashish jang'armasi hisobidan	
			soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
2021-yil	352 469	8 566,3	342 976	8 196,3	3 387	189,0	4 584	134,3	1 522	46,8
2022-yil	424 538	9 893,3	410 719	9 379,9	12 011	411,0	1 670	85,4	138	17,0
2023-yil	472 021	9 864,3	452 449	9 259,8	19 349	579,5	150	8,8	73	16,2
2024-yil	372 643	6 841,4	358 588	6 483,5	14 015	352,5	21	0,9	19	4,5

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2021–2023-yillar oralig'ida tijorat banklari tomonidan davlat maqsadli dasturlari doirasida ajratilgan kreditlar hajmi yildan yilga oshib borgan. Biroq 2024-yilda bu ko'rsatkichning nisbatan qisqarganligi kuzatiladi. Xususan, "Har bir oila – tadbirkor" davlat dasturi doirasida 2021–2024-yillar davomida jami 1 621 673 ta subyektga umumiy qiymati 35 trillion 168 milliard so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilgan.

Shuningdek, jadval ma'lumotlariga tayanib aytish mumkinki, 2024-yilda barcha asosiy yo'nalishlardagi dasturlar doirasida kredit ajratish hajmi pasaygan. Bu holat bir qator ichki va tashqi omillar bilan izohlanishi mumkin. Jumladan, davlat byudjeti xarajatlarining optimallashtirilishi, tashqi qarz yuki bo'yicha ehtiyot siyosat olib borilishi, tijorat banklari likvidligini saqlab qolish strategiyasi hamda dastlabki yillarda ajratilgan kreditlar qaytarilishidagi muammolar sababli ehtiyotkor yondashuv kuchaygan bo'lishi mumkin.

To'rt yil davomida jismoniy va yuridik shaxslarga tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida yo'naltirilgan ushbu imtiyozli moliyaviy resurslarning natijadorligi, ularning iqtisodiyotga keltirgan ta'sirini chuqur tahlil qilish zarur. Ayniqsa, tashqi qarz siyosatini bosqichma-bosqich muvozanatlashtirayotgan O'zbekiston uchun bu kabi moliyaviy dasturlarning samaradorligini baholash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, ajratilgan mablag'larning iqtisodiy samarasi nafaqat kredit oluvchilar faoliyatida, balki makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda ham aks etishi lozim (3-jadval).

14 O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.




3-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2021-2023-yillarda oilaviy korxonalarda ishlovchi xodimlar soni to'g'risida ma'lumot¹⁵ kishi

Hududlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil
O'zbekiston Respublikasi	71 923	79 324	80 054
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 895	3 058	3 285
viloyatlar:			
Andijon	2 515	2 704	2 636
Buxoro	4 781	5 072	5 183
Jizzax	1 725	1 989	1 883
Qashqadaryo	4 318	5 137	4 703
Navoiy	5 422	5 573	5 197
Namangan	1 957	2 066	2 174
Samarqand	12 058	13 338	14 166
Surxondaryo	5 651	6 219	5 520
Sirdaryo	445	430	433
Toshkent	6 854	7 469	8 080
Farg'ona	8 563	9 298	9 381
Xorazm	7 097	8 751	8 851
Toshkent shahri	7 642	8 220	8 562

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'nggi uch yil davomida oilaviy korxonalarda ishlovchi xodimlar soni barqaror o'sish tendensiyasiga ega. Xususan, 2022-yilda xodimlar soni 2021-yilga nisbatan 7401 nafarga yoki 10 foizga oshgan bo'lsa, 2023-yilda esa 2022-yilga nisbatan 730 nafarga, ya'ni qariyb 1 foizga ko'paygan.

Mazkur ijobiy dinamika oilaviy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faolligi ortib borayotganini ko'rsatadi. Bu tendensiya quyida keltirilgan diagrammada yanada yaqqol ifodalangan.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2021-2023-yillarda Oilaviy korxonalarda ishlovchi xodimlar soni to'g'risida ma'lumot

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatda ishsizlikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat maqsadli dasturlarini tijorat banklari orqali imtiyozli moliyalashtirishda quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratish bugungi kunning dolzarb talabi bo'lib, ushbu dasturlar orqali kutilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikka erishishni ta'minlaydi:

15 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



Imtiyozli kredit oluvchi fuqarolarning rejalashtirayotgan tadbirkorlik faoliyati bilan bevosita tanish bo'lishi. Jumladan, u kishi tanlagan sohaning hozirgi bozor holati, talab va taklif muvozanati, istiqbollari, shuningdek, dastlabki biznes-rejaning mavjudligi va asoslanganligi aniqlashtirilishi zarur;

Mahalla yettiligining fuqaro bilan birgalikda joyiga chiqqan holda, uning tadbirkorlik faoliyati boshlanishidan oldin kompleks o'rganish ishlarini amalga oshirishi. Bu o'rganish orqali nafaqat tashabbuskorning tayyorgarligi, balki joyning infratuzilma, resurs va bozor sharoitlariga muvofiqligi ham aniqlanadi;

Mahalla, tijorat banki va mahalliy hokimiyat organlari tarkibida ushbu yo'nalish uchun mas'ul bo'lgan xodimlarning malakasini oshirish. Ayniqsa, "tadbirkorga qanday ko'mak berish mumkin?" degan savolga amaliy javob bera oladigan kadrlar tizimini shakllantirish lozim;

Mahalla, bank va mahalliy hokimiyat xodimlari faoliyati ustidan korrupsion holatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida doimiy nazorat mexanizmlarini joriy etish. Bu jarayonda fuqarolarning ochiqlik, shaffoflik va ishonch asosidagi fikr-mulohazalari ham inobatga olinishi kerak;

Kredit ajratilgan tadbirkorlik faoliyati ustidan muntazam monitoring olib borish. Bunda mahalla, bank va hokimiyat vakillari birgalikda nazoratni olib borishi, faoliyat davomida yuzaga kelgan muammolar bo'yicha qo'shimcha maslahat va yordam ko'rsatishi maqsadga muvofiq;

Ajratilayotgan kreditlarning foiz stavkalarini imkon qadar bozor mexanizmlariga mos va ijtimoiy jihatdan maqbul darajada belgilash. Bu kredit oluvchining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan birga, dasturdan kutilgan natijani yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston respublikasi Prezidentining kichik va o'rta biznes vakillari bilan uchrashuvi nutqi. 2025-yil 19 mart.
2. Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik – T "Lesson press" nashriyoti. 2021-yil. 768 bet
3. Yan Tinbergen "Siyosiy iqtisod tarixi" 2018-yil 1 dekabr.
4. Marshall's "Industry and Trade" A. C. Pigou. The Economic Journal. Vol. 29, No. 116 (Dec., 1919), pp. 443-450 (8 pages)Published By: Oxford University Press.
5. Paul. A Samuelson. "Iqtisodiyotning qat'iyatligi" Kembridj universiteti nashri. 1987.
6. Léon Walras, "Elements of heoretical Economics or he heory of Social Wealth" Translated and edited by Donald A. Walker Indiana University of Pennsylvania JAN VAN DAAL Triangle, University of Lyons. 2019.
7. PART IV "Theory of capital formation And credit", Lesson 25 Solution of the equations of capital formation and credit. Law of the determination of the rate of net income. University of Lyons. 2020.
8. "The General Theory of Employment, Interest, and Money" By John Maynard Keynes. Feburary 1936. chapter 8, the propensity to consume: in. the objective factors page 53.
9. Mankiw, N. G. (2020). Macroeconomics. 10th Edition, Worth Publishers.
10. Mishkin, F. S. (2019). "The Economics of Money, Banking, and Financial Markets". 13th Edition, Pearson.
11. Friedman, M. (1968). The Role of Monetary Policy. American Economic Review, 58(1), 1-17
12. Bernanke, B. S., & Blinder, A. S. (1988). "OCredit, Money, and Aggregate Demand". American Economic Review,
13. Gurley, J. G., & Shaw, E. S. (1960). Money in a Theory of Finance. Washington, D.C.: Brookings Institution.
14. Levine, R. (1997). Financial Development and Economic Growth: Views and Agenda. Journal of Economic Literature.
15. <https://cbu.uz/uz/>- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
16. <https://stat.uz/uz/> - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>